

№ 11/10 - sonli
Loyiha-smeta xujjatlari tuzish
SHARTNOMASI

17 noyabr 2022 yil

Qarshi shahri

Qashqadaryo viloyat hokimligi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi nomidan (keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi direktori A.Normo'minov bir tomondan va ustav asosida faoliyat ko'rsatayotgan "EVEREST DIZAYEN" MCHJ nomidan (keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» (Bajaruvchi nomi) deb yuritiladigan) Nizomi asosida faoliyat ko'rsatuvchi boshlig'i Yuldoshev Bekzod ikkinchi tomondan, Koson tumani Uyrot MFY binosini kapital ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash shartnomasini tuzdilar.

145.Shartnomaning mazmuni

- 145.1. "Buyurtmachi" topshirig'iga asosan "Bajaruvchi Koson tumani Uyrot MFY binosini kapital ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlashni o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. "Bajaruvchi" loyiha ishlarini "Korxonalar, bino va inshootlari qurilishiga loyiha-smeta xujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash" haqidagi SHNQ 1.03.01-03, "Qurilishda joriy shartnomaviy baholarni aniqlash tartibi" to'g'risidagi SHNQ 4.01.16-04 va loyihaga qo'yiladigan me'yoriy talablarni, qoida va qo'llanmalar asosida bajarilishini ta'minlaydi.
- 1.3. Bajariladigan ishlarga ilmiy, texnik, iqtisodiy va boshqa talablarni bajarish loyihalash topshiriqnomasida ko'rsatiladi.
- 1.4. Ishlarning bajarilish muddati tanlov bayonnomasi asosida belgilanadi va mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 1.5. "Bajaruvchi" maxsus loyiha ishlariga yordamchi bajaruvchi tashkilotlar bilan qo'shimcha shartnoma tuzishga haqlidir. Qo'shimcha shartnomalarni tuzish "Bajaruvchi"ning zimmasiga yuklatilgan mazkur shartnomaning shartlarini bajarish javobgarligidan ozod etmaydi.
- 1.6. Xo'jalik shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

146. Tomonlarning majburiyatlari

- 147.a) "Bajaruvchi"ning majburiyatlari
- 148.2.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" tomonidan berilgan loyihalash topshiriqnomasi va arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasi asosida loyiha ishlarini bajaradi;
- 149.2.2. "Bajaruvchi" mazkur shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni "Buyurtmachi"ning ruxsatisiz uchinchi shaxsga berishga haqli emas.
- 150.2.3 "Bajaruvchi" mazkur shartnoma bo'yicha Atrof muxitga ta'sir ko'rsatish to'g'risidagi bayonot loyiha hujjatini tayyorlash ishlarini bajaradi;
- 151.2.4. Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazadi;
- 152.2.5. Topotasvir va geologiya ishlarini bajaradi;
- 153.2.6. Loyiha ishlarini bajarilishini parallel ravishda ta'minlaydi;
- 154.2.7. "Bajaruvchi" tomonidan tayyorlangan loyiha asosida hisoblangan smetadagi fizik ish hajmlar, material resurslar miqdori to'g'riligi (loyihaga mosligi) uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va oyma-oy bajarilgan ishlar to'g'risida "Buyurtmachi"ga kelishilgan jadval asosida hisobot topshirib turadi.
- 155.2.8. VMning 2021 yil 20 maydagi 321-sonli qarori 3-ilovasiga asosan "Qurilishda mualliflik va texnik nazorat to'g'risida Nizom" talabi asosida bajaruvchi tomonidan inshootda qurilish-montaj ishlarining loyiha yechimlariga muvofiqligi ustidan mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib boradi.
- 156.b) "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:
- 157.2.9. "Bajaruvchi"ga ish hajmlarini bajarilishiga kerakli arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasini taqdim etadi;
- 158.2.10. Bajarilgan loyiha ishlaridan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadda foydalanadi;

- 159.2.11. "Bajaruvchi" tomonidan bajarilayotgan loyiha ishlari va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini kuzatib boradi, mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib boradi;
- 160.2.12. "Buyurtmachi" mablag' bilan ta'minlovchi tashkilotlarga bajarilgan loyiha ishlarining hajmi to'g'risida hisobotlarni o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi.

3. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

- 3.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" tomonidan bajariladigan ishlar tanlov (tender) savdosi natijasida aniqlangan va tanlov (tender) komissiyasining 2022 yil 15-noyabrdagi 182831 - sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan qiymati barcha soliqlar, yig'ima va ajratmalarni (QQSni inobatga olgan holda) joriy narxlarda **4 900 000** (turt million tuqiz yuz ming) so'mni tashkil etadi.
- 3.2. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ni mazkur shartnoma bo'yicha oldindan 15 foiz miqdorida bo'nak (avans) mablag'i bilan ta'minlaydi. 2022 yil tasdiqlangan manzilli dasturga asosan ajratilgan limit doirasida mablag' moliyalashtirib beriladi. Belgilangan mablag'lar bilan ta'minlash "Buyurtmachi"ni shu maqsadlar uchun Moliyalashtiruvchi organlar tomonidan moliyalashtirilgandan keyin 5 bank ish kunida amalga oshiriladi. Bajarilgan ishlar uchun moliyalashtirishning qolgan qismi mazkur ishlar sifatli qilib bajarilib, mualliflik nazoratini belgilangan tartibda olib borgach dalolatnomalar asosida qabul qilingandan keyin bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.
- 3.3. Mablag' bilan ta'minlovchi organ tomonidan inshoot uchun mablag' ajratilmagan holatda "Buyurtmachi" bajarilgan ish uchun bajaruvchiga to'lovlarni shartnomada belgilangan muddatda amalga oshirish majburiyatini olmaydi va iqtisodiy sud oldiga moliyalashtirilmagan mablag' uchun javobgar bo'lmaydi.
- 3.4. "Bajaruvchi" tomonidan ishlab chiqilgan qurilishga sarflanadigan moddiy texnika resurslari miqdori va qurilish muddati uzil-kesil hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi, ayrim hollar bundan mustasno, ya'ni:
- 3.4.1. Ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish qiymati va muddatini o'sishiga yoki shu parametrlardan biriga bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major holati) sabab bo'lsa.
- 3.4.2. "Buyurtmachi" tomonidan ish hajmlariga o'zgartirish kiritilganda.
- 3.4.3. Ishlarni bajarish, xizmati ko'rsatish muddati bir yildan ortiq bo'lganda.
- 3.4.4. Loyiha-smeta bo'yicha hajmga o'zgartirish kiritilganda shartnoma qiymatiga o'zgartirish qo'shimcha kelishuv tuzish bilan yo'l qo'yiladi.
- 3.4.5. Asoslab berilgan holda, yuqorida qayd etilgan o'zgartirishlar "Buyurtmachi" va "Bajaruvchi" o'rtasida qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

- 4.1. Bajarilgan ishlar ShNQ 1.03.01-03 va "Buyurtmachi" tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshiriq talablari asosida qabul qilinadi.
- 4.2. "Bajaruvchi" ishlarni bajarib bo'lgach, "Buyurtmachi"ga texnik topshiriqda ko'rsatilganidek topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib 2 ta nusxada loyiha-smeta hujjatlari komplektini taqdim etadi.
- 4.3. "Buyurtmachi" mazkur shartnomaning 4.2.-bandida ko'rsatilganidek, topshirish-qabul qilish dalolatnomasini va hisobot hujjatlarida bajarilgan ishlarni 5 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va "Bajaruvchi"ga imzolangan yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.
- 4.4. Bajarilgan ishlarini topshirish-qabul qilish davomida "Buyurtmachi"ning asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi jarayoni keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'lib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi haqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'nalishlarni oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chiqishlari kerak. "Buyurtmachi" ushbu holatda "Bajaruvchi"ga amalda bajarilgan loyiha ishining harajatlarini mazkur shartnomaning 3.3.2 va 3.3.4 bandlariga asosan amalga oshiradi.

5. Tomonlarning javobgarligi

- 5.1. To'lov talabnomasini asossiz ravishda to'la yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitoblarning boshqa shakllardagi ishlarga haq to'lashdan bosh tortganligi (G'aznachilik boshqarmasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaslik, chek bermaslik, akkreditiv qo'ymaslik va xokozo) uchun, "Buyurtmachi" to'lovdan bosh tortgan yoki rad etgan summasining 0,04 foiz

hajmida "Bajaruvchi"ga penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan oshmasligi kerak.

5.2. "Buyurtmachi" olgan majburiyatini buzganligi uchun mazkur shartnomaning 4.3 moddasiga asosan u "Bajaruvchi"ga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning ijro etilmay qolgan qismining 0,04 foiz hajmida penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak.

5.3. "Bajaruvchi" ishlarini bajarishda, xizmat ko'rsatishda olgan majburiyatlarini buzganligi uchun o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning ijro etilmay qolgan qismining 0,04 foiz hajmida penya to'laydi. Ammo bunda umumiy summa bajarilmagan ish yoki ko'rsatilmagan xizmatning 50 foizdan ortib ketmasligi kerak. Penya to'lash shartnoma majburiyatini buzgan tomonni kechiktirib bajargan ishi yoki ko'rsatgan xizmati oqibatida keltirilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.4 "Bajaruvchi" shartnoma talablariga ko'ra mualliflik nazoratini lozim darajada olib bormaganligi aniqlansa shartnoma umumiy qiymatining 30 % miqdorida jarima to'laydi.

5.5. "Bajaruvchi" tomonidan tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarida nuqsonlar (tayyorlangan smeta hujjatlaridagi ish hajmlarini loyihaga mos kelmasligi) aniqlansa "Bajaruvchi" kamchiliklarni o'z hisobidan to'g'rilanishini ta'minlaydi yoki taqdim etilgan loyiha-smeta hujjatlarida qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi, yetkazilgan zararlarni qoplab beradi.

5.6. Agar sodir bo'lishiga tomonlarning hech biri javob bermaydigan (fors-major) hollar yuzaga kelsa, tomonlar o'z harakatlarida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik me'yorlariga suyanadilar.

5.7. Agar bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar kerakli sifatga, texnik shartlarga va majburiyat shartlariga mos kelmasa, "Buyurtmachi" bajarilgan ishlarga haq to'lashdan bosh tortishga haqli. "Bajaruvchi"dan sifatga javob bermaydigan ish qiymatining 0,4 foizi penya undirishga haqli, biroq bunda penyaning umumiy summasi shartnoma qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Agar bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga haq to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan so'mmani qaytarishni talab qilishga, hamda penya talab qilishga haqli.

Penya hisobi to'lov talabnomasi bank muassasasiga, loyiha nujjatlarining sifati, assortimenti va sifati lozim darajada bo'lmagan bajarilgan ishlar aniqlangan kundan boshlab bu haqida dalolatnoma tuzilganidan keyin 10 kundan kechikmay taqdim etilishi lozim. Penya hisobi to'lov talabnomasi belgilangan 10 kunlik muddatni buzgan tarzda taqdim etilsa va "Bajaruvchi" penyani ixtiyoriy to'lashdan bosh tortsa penyani undirish belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan amalga oshiriladi.

5.8. ShNQ 1.03.01-03ning 1.13 bandiga asosan inshootning loyiha-smeta xujjatlarida qabul qilingan texnik iqtisodiy yechimlar, fizik ish hajmlarining to'g'riligi va qurilish materiallari uchun qo'llaniladigan birlik narxlarining to'g'riligi va haqqoniyligi uchun loyiha tashkiloti to'liq javob berishlari, agarda qurilish ishlariga tender savdolari o'tkazilgandan so'ng qurilish jarayonida loyiha hujjatlarida aniqlangan xato va kamchiliklar qiymati aniqlansa, ushbu kamchiliklarni to'g'rilash uchun ketadigan barcha xarajatlar loyiha tashkilotlari tomonidan to'liq qoplaniladi.

5.9. Shartnomani ijro etmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar shartnomada o'zgacha ko'zda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunining 24-35-moddalariga asosan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

5.10. Tomonlar o'rtasida nizolar va kelishmovchiliklar yuz bergan holatlarda, umumiy da'vo muddati (3 yil) hisobga olingan holda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilinadi.

6. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holati (fors-major)

6.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy harakatlar, yuqumli kasalliklar tarqalishi va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, hamda bu holat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'la ijro etilmay qolgan qismi uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, keltirib chiqargan oqibat hukm surgan vaqtga mos ravishda muddati uzaytiriladi.

6.2. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, "Bajaruvchi" va "Buyurtmachi" ishni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muhokama qiladilar.

Agar tomonlar 2 oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

7. Qo'shimcha shartlar

7.1. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

8.1. Mazkur shartnomani tomonlar imzolagandan keyin qonuniy kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarib bo'lguncha haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yil.

8.3. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

9. Nizolarni hal etish tartibi va huquqiy ekspertizasi

9.1. Shartnomaning mazmuni uni tuzishga tayyorlash jarayonida yuridik xizmat sub'ektlari yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonunchilikka muvofiq kelishi tekshirilgan bo'lishi darkor. Ularning imzosiz yoki xulosasiz shartnoma tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi.

9.2. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek, keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga kelgan bahslar qonunchilikda belgilangan tartibda Qarshi tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan yoki, tomonlarning kelishuviga binoan hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

10. Tomonlarning rekvizitlari

"Buyurtmachi"	"Bajaruvchi"
<p>Qashqadaryo viloyat hokimligi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi Manzili: Qarshi sh, O'zbekiston ovozi gazetasi 3-uy Tel: 227-16-56. 227-14-60, faks 227-19-82. sh/x* 301821860104017011402018037</p> <p>INN 204 796 710 OKONX 69000 АТБ Ипотика банк Қашқадарё вилояти фил</p> <p> Direktor A. Normo`minov</p>	<p>"EVEREST DIZAYEN" MCHJ Manzili: Qarshi shaxar Sayqal kuchasi 6-uy Tel: +998973153121 H/R: 20208000800787773001 ATB «Xamkor bank Qarshi filiali». MFO:01031 STIR: 304981984</p> <p> Direktori Bekzod Yuldoshev.</p>

Huquqshunos xulosasi: Ushbu shartnoma O'ZR FK va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning normalari va tomonlar javobgarligi, nizolarni hal etish amaldagi qonun hujjatlari talablariga javob beradi.

Bosh yuristkonsult:

(Imzo)

D.Kulnazarov

ISHLARNING KALENDAR REJASI

Qashqadaryo viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi topshirig'i bilan Koson tumani Uyrot MFY binosini kapital ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash.

2022 yil 17 noyabrdagi
11\10sonli shartnomaga
1-ilova

№	Shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlarning va asosiy bosqichlarning ro'yxati	Bajarish muddati		Bosqichlarning hisob qiymati yig'indisi QQS bilan birga
		Boshlanishi	Yakunlanishi	
1	Koson tumani Uyrot MFY binosini kapital ta'mirlash	2022 yil	2022 yil	4 900 000
	Jami:			4 900 000

turt million tuqqiz yuz ming
(So'mma so'z bilan)

“BUYURTMACHI” nomidan

Direktor



A. Normo'minov

“BAJARUVCHI” nomidan

Direktori



B. Yuldoshev.

2022 yil 17 noyabrdagi
11\10-sonli shartnomaga 2-ilova
Koson tumani Uyrot MFY binosini kapital
ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini
tayyorlash

S M E T A S I

Buyurtmachi: Qashqadaryo viloyat hokimligi injiniring kompaniyasi
Bajaruvchi: "EVEREST DIZAYN" MCHJ

No	Tashkilot, qurilish inshootlari yoki ish turlarining tavsifi	Qurilish uchun loyiha (qidiruv) ishlari narxlari to'plamining qismi № bobi, jadvali bandi	Qiymatini hisoblash (ax6)=c	Qiymati QQS bilan birga
1	2	3	4	5
1	Koson tumani Uyrot MFY binosini kapital ta'mirlash			4 900 000
JAMI				4 900 000

turt million tuqqiz yuz ming
(So'mma so'z bilan)

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 182831 на приобретение Косон тумани Уйрот МФЙ биносини мукаммал таъмирлаш (Лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш)

Способ проведения электронный

Дата 15.11.2022

Время рассмотрения 14.11.2022 23:10

Закупочная комиссия Вилоят хокимлиги Ягона буюртмачи хизмати инжиниринг компанияси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	NORMO'MINOV ABDUSAMAT BOBOQULOVICH	Direktor	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi
Секретарь комиссии	ABDULLAYEV DILSHOD RAXIMKULOVICH	Bo'lim boshlig'i	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi
Член комиссии	VAFOYEVA NIGORA BOBONAZAROVNA	Bo'lim boshlig'i	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi
Член комиссии	TURAYEV TOLMAS NORMUMINOVICH	Bo'lim boshlig'i	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi
Член комиссии	BOYMIRZAYEV VALIJON YULDASHEVICH	Bo'lim boshlig'i	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi
Член комиссии	SHAXOBOV FARXOD ILXOMOVICH	Bosh muhandis	Qashqadaryo viloyati Yagona buyurtmachi xizmati Injiniring Kompaniyasi

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 15.11.2022 года № лота 182831.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по проектно - изыскательной работе
Подробное описание	Косон тумани Уйрот МФЙ биносини мукаммал таъмирлаш (Лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш)
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	5 000 000.00
Стартовая сумма	5 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 VI. Loyihalash (Qurilish) maydonini ko'rganlik va loyihani o'rganganlik to'g'risida ma'lumotnoma 5 – shakl. (0-5 ball)

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Qurilish maydonini ko'rganligi va o'rganib chiqilganligi 2. Muhandislik kommunikatsiyalarini o'rganib chiqqanligi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ АРХИЛЮКС ХК	5	5000000	5	Экспертная		
"EVEREST DIZAYN" МСНД	5	4900000	5	Экспертная		

Критерий №2 IV. Tanlov ishtirokchisining oxirgi 3 (uch) yillik moliyaviy ko'rsatgichlari, to'lovga qodirligi va aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumot 3-shakl. (9-20 ball)*

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Ishlab chiqarish fondining qiymati 100 mln.so'mgacha va undan ko'p 2. Muddati o'tgan kreditorlik qarzdorligi mavjud emasligi (balans va moliyaviy natijalardan nusxa hamda byudjet va byudjetdan tashqari soliq, bank qarzdorligi bo'yicha ma'lumotnomalarning asl nusxasi). 3. O'tgan yilda 20 mln.so'm foydasi (soliq to'langunga qadar) mavjudligi 4. To'lovga qodirlik koyefitsienti ijobiyiligi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ АРХИЛЮКС ХК	20	5000000	15	Экспертная		
"EVEREST DIZAYN" МСНД	20	4900000	17	Экспертная		

Критерий №3 VII. Mavjud orgtexnika (kompyuter, printer, loyihalash dasturlari) va boshqalar ro'yhati, 6 - shakl (5-15 ball)**

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Loyihani bajarish uchun zarur bo'lgan 5 ta dan kam bo'lgan oxirgi 10 yillikda ishlab chiqarilgan kompyuterlar mavjudligi** (ijara shartnoma asosidagi loyiha texnikalarining ballari 50% kamaytiriladi) 2. Loyihani bajarish uchun zarur bo'lgan orgtexnika vositalarini (printerlar , plotterlar, kserokopiya va skanerlar) mavjudligi** 3. Loyihalash programmalari: - "Auto Cad"-2007-2020 - "Corel Draw X3-2005" - "3D MAX" - "Lira 9.4" - Smeta programmalari 4. Mavjud xizmat mashinalari

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ АРХИЛЮКС ХК	15	5000000	11	Экспертная		
"EVEREST DIZAYN" МСНД	15	4900000	13	Экспертная		

Критерий №4 III. Loyihachi tashkilot haqida umumiy ma'lumotlar. 2 - shakl (6-30 ball)

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Ish staji 5 yildan kam bo'lgan oliy ma'lumotli loyihalash mutaxassisligiga ega bo'lgan rahbarlardan 1 kishi mavjudligi. (tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi) 2. Diplomli 5 yil ish stajiga ega 2 kishidan iborat injener-texnik hodimlarni mavjudligi. (GIP, GAP) (tasdiqlovchi hujjatlar: pasport, diplom va mehnat daftarchasi nusxalari ilova qilinadi) 3. Doimiy ravishda ishlovchi 10 ta malakaviy loyihachi mutaxassislar mavjudligi. (tasdiqlovchi hujjatlar: pasport, diplom va mehnat daftarchasi nusxalari ilova qilinadi) 4. Doimiy ravishda ishlovchi 10 yillik ish stajiga ega 4 malakaviy loyihac

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ АРХИЛЮКС ХК	30	5000000	17	Экспертная		
"EVEREST DIZAYN" МСНД	30	4900000	24	Экспертная		

Критерий №5 I. Deklaratsiya II. Loyihachi tashkilotning tashkiliy strukturasi - 1 shakl (0-5 ball)

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Tanlovda ishtirok etish buyurtmasida deklaratsiya bo'lmaganda taklif ko'rib chiqilmaydi va hujjatlarning 2 - yig'ma jildi ochilmasdan oferentga qaytariladi. Tashkiliy struktura

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ АРХИЛЮКС ХК	5	5000000	5	Экспертная		
"EVEREST DIZAYN" МСНД	5	4900000	5	Экспертная		

Критерий №6 V. Tanlov ishtirokchisining loyihalash ishlari bo'yicha bajargan ish tajribasi 4 - shakl (10-20 ball)

Тип: Текстовое значение

Описание: 1. Tanlovda qo'yilgan ob'ektga o'xshash bo'lgan ob'ektlarni LSHini bajarish: yiliga N (N- oxirgi 3 (uch) yilda yiliga 1ta va undan ko'p) 2. Bir yilda 10 tadan kam bo'lmagan ob'ektlarning LSHni tayyorlaganlik 3. Ijtimoiy soha ob'ektlarini LSHini bajarilishi

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ АРХИЛЮКС ХК	20	5000000	14	Экспертная		
"EVEREST DIZAYN" МСНД	20	4900000	15	Экспертная		

Критерий №7 VIII. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida yordamchi loyiha tashkilotni jalb qilish to'g'risida ma'lumot - 7 - shakl

Тип: Текстовое значение

Описание: VIII. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida yordamchi loyiha tashkilotni jalb qilish to'g'risida ma'lumot - 7 -shakl

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
КАРШИ АРХИЛЮКС ХК	5	5000000	4	Экспертная		
"EVEREST DIZAYN" МСНД	5	4900000	5	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
"EVEREST DIZAYN" MCHJ	5 000 000.00	4 900 000.00 UZS	4 900 000.00	00.00	4 900 000.00	12.11.2022 23:29:16	30
КАРШИ АРХИЛЮКС ХК	5 000 000.00	5 000 000.00 UZS	5 000 000.00	00.00	5 000 000.00	11.11.2022 23:18:33	29.4

Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
"EVEREST DIZAYN" MCHJ	58.8	30	88.8
КАРШИ АРХИЛЮКС ХК	49.7	29.4	79.1

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 182831 от 15.11.2022 года на приобретение Косон тумани Уйрот МФЙ биносини мукаммал таъмирлаш (Лойиха-смета хужжатларини ишлаб чиқиш) определила победителем:

"EVEREST DIZAYN" MCHJ
304981984

и резервный исполнитель: КАРШИ АРХИЛЮКС ХК (205213359)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	NORMO'MINOV ABDUSAMAT BOBOQULOVICH	Согласен	
Член комиссии	VAFOYEVA NIGORA BOBONAZAROVNA	Согласен	
Член комиссии	TURAYEV TOLMAS NORMUMINOVICH	Согласен	
Член комиссии	BOYMRZAYEV VALIJON YULDASHEVICH	Согласен	
Член комиссии	SHAXOBOV FARXOD ILXOMOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП